



O'zbekiston Ekologik
partiyasi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining
Iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga
o'tishni tezlashtirish masalalari bo'yicha komissiyasi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, ilmiy – ommabop jurnal

**“YASHIL IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQAROR
RIVOJLANISHDA ILG'OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI
SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI”
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

2025-YIL 3-DEKABR

**Republican Scientific–Practical Conference
“CHALLENGES IN DEVELOPING ADVANCED ENGINEERING
SCHOOLS FOR GREEN ECONOMY AND ENVIRONMENTAL
SUSTAINABILITY”**

3 DECEMBER 2025

**Республиканская научно-практическая конференция
«ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕРЕДОВЫХ
ИНЖЕНЕРНЫХ ШКОЛ В РАЗВИТИИ ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ»**

3 ДЕКАБРЯ 2025 ГОДА

10-MAXSUS SON

Toshkent — 2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 102 sahifa.
2025-yil, dekabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

OLIY TA'LIMDA EKO-TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI OROLBO'YI HUDUDINING EKOLOGIK BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH.....	7
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich	
“YASHIL ENERGETIKA” – O‘ZBEKISTONNING YASHIL VA SOG‘LOM KELAJAGI IQTISODIYOTIMIZNING YANGI DRAYVERI.....	10
Abdushukur Hamzayev	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI.....	12
Xodjayeva Mohira Mirzaxmadovna	
QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	15
Muxiddin Kalonov	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH ASOSIDA “YASHIL O‘SHISHNI” TA‘MINLASH: MUOMMO VA YECHIMLAR	19
Makhmudov Nosir Makhmudovich	
YASHIL OBLIGATSIYALAR: IQTISODIY FAOLLIK VA HISOB YURITISHNING DOLZARB MASALALARI	23
Norboy G‘anievich Karimov	
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI VA TEXNOPARKLARNING AHAMIYATINI AKADEMIK TA‘LIM JIHATIDAN TAKOMILLASHTIRISH.....	26
Sanjarbek Mirzaliyev Maxamatjon o‘g‘li	
INDUSTRIYAL SANOAT EHTIYOJLARIGA MOS, INNOVATSIYALAR YARATISHGA QODIR MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI VA “YASHIL” IQTISODIYOT INTEGRATSIYASINING STRATEGIK AHAMIYATI.....	28
Sherzod Qurbonov	
YASHIL BUXGALTERIYA VA YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK DOLZARBLIGI.....	31
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING IJTIMOY-IQTISODIY TAHLILI	34
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
YASHIL MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR VA ULARNING EKOLOGIK INFRATUZILMA MODERNIZATSIYASIDAGI ROLI.....	37
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ИНКЛЮЗИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ДО 2030 ГОДА.....	40
Алимова Азиза Шерзатовна	
SANOATDA YASHIL ENERGIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLAR.....	46
Abdullaev Elörbek Odiljon o‘gli	
MODA SANOATIDA YASHIL MARKETING VA ISTE‘MOLCHILARNING EKOLOGIK ONGINI RIVOJLANTIRISH.....	50
Ahmadjonova Rayhona Jasurbek qizi	
YASHIL ERP TIZIMLARINING KORXONALARDA BARQAROR RIVOJLANISH VA MARKETING SAMARADORLIGIGA TA‘SIRI	54
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARINI INNOVATSION MENEJMENT ASOSIDA YASHIL MARKETINGDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI QO‘LLASH	58
Boltayeva Sitora Mirdjonovna	



HUDUDLARARO IJTIMOY TENGLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL MARKETING INSTRUMENTLARINING AHAMIYATI	62
Ibrohimov Baxtrom Bog'dirovich	
OLIY TA'LIMDA YASHIL INNOVATSIYALARNI TARG'IB QILISH ORQALI XORIJIY TALABALAR OQIMINI OSHIRISH	66
Isamuqometov Shukurullo Asotullayovich	
YASHIL INNOVATSIYALAR ASOSIDA AGROMARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA MEVA SABZAVOT BOZORIDAGI NARX BARQARORLIGI MODELI	70
Isroilov Abdurashid Abduraxmanovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MIJOZLAR BILAN YASHIL RAQAMLI ALOQALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	75
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
SUN'YI INTELLEKT ASOSIDAGI BILIMLARNI BAHOLASH TIZIMLARI VA ULARNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA MOSLASHGAN ILG'OR YONDASHUVLARI	78
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MIJOZLAR BILAN YASHIL RAQAMLI ALOQALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	82
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'YI TOLALARDAN FOYDALANISHDA BARQAROR TA'MINOT ZANJIRI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH	85
Raximov Furqat Jalolovich	
TIJORAT BANKLARIDA OMONAT HAJMINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARINING ROLI	89
Raximov Shoxrux Furqatovich	
PAXTA TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINI JORIY ETISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	93
Tadjiev Sa'dulla Muhitdinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORLARIDA YASHIL INNOVATSIYALAR ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA MARKETING STRATEGIYASINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	97
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	



HUDUDLARARO IJTIMOY TENGLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL MARKETING INSTRUMENTLARINING AHAMIYATI

Ibrohimov Baxtrom Bog'dirovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
"Biznes va boshqaruv" kafedrasini o'qituvchi stajyori

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi hududlararo ijtimoiy tenglikni ta'minlashda yashil marketing instrumentlarining ahamiyati nazariy yondashuv asosida o'rganilgan. Ekologik sertifikatlash, mahsulot yorliqlari, yashil moliyalashtirish hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy tenglikka ta'siri baholangan. Yashil siyosatlarining resurs jihatdan zaif hududlarga ta'sir mexanizmlari tahlil qilingan. Marketing strategiyalarining institutsional salohiyat, moliyaviy inklyuzivlik va ekologik ong darajasi bilan uzviy bog'liqligi aniqlangan. Tezisdagi nazariy asoslangan takliflar shakllantirilib, hududlararo tenglikni oshirishda samarali yashil marketing yondashuvlarini qo'llash zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: yashil marketing, ijtimoiy tenglik, hududiy tafovut, ekologik siyosat, sertifikatlash, moliyalashtirish, qayta tiklanuvchi energiya.

Abstract. This thesis presents a theoretical analysis of the role of green marketing instruments in promoting interregional social equity. The impact of ecological certification, product labeling, green financing, and renewable energy technologies on socio-economic balance has been assessed. The effects of environmental policies on economically vulnerable regions have been explored. A strong relationship has been identified between marketing strategies and institutional capacity, financial inclusion, and environmental awareness. Scientifically grounded recommendations have been developed to support the use of effective green marketing approaches in reducing regional inequality.

Key words: green marketing, social equity, regional development, ecological certification, green finance, renewable energy, environmental policy.

Аннотация. В данной тезисной работе теоретически проанализировано значение инструментов зелёного маркетинга в обеспечении межрегионального социального равенства. Оценено влияние экологической сертификации, маркировки продукции, зелёного финансирования и технологий возобновляемой энергии на социально-экономическое выравнивание. Рассмотрено воздействие экологической политики на экономически уязвимые регионы. Установлена взаимосвязь маркетинговых стратегий с институциональной ёмкостью, финансовой инклюзией и уровнем экологического сознания. Сформулированы научно обоснованные предложения по применению эффективных зелёных маркетинговых подходов для сокращения регионального неравенства.

Ключевые слова: зелёный маркетинг, социальное равенство, региональное развитие, экологическая сертификация, зелёное финансирование, возобновляемая энергия, экологическая политика.

Hududlararo ijtimoiy tenglikni ta'minlash har qanday iqtisodiy islohotda muhim strategik yo'nalish sanaladi. Bu ayniqsa ekologik o'zgarishlar, yashil iqtisodiyotga o'tish va iqlim siyosatining kuchayishi fonida yanada dolzarb tus olmoqda. Raqamli asrda ekologik yondashuvlar nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni shakllantirish vositasi sifatida ham qaralayotgan bir vaqtda, yashil marketing strategiyalarining bu jarayonda tutgan o'rni alohida o'rganishga arziydi. Ayniqsa, yashil innovatsiyalarni aholi qatlamlari orasida adolatli taqsimlash, ekologik sertifikatlar va yorliqlash mexanizmlarining hududiy ishlab chiqaruvchilarga bo'lgan ta'siri, hamda yashil savdo siyosatlarining zaif iqtisodiy hududlarga qanday ta'sir qilayotgani — asosiy tahlil obyektiga aylangan.

Yashil marketing bugungi kunda faqat ekologik targ'ibot emas, balki ishlab chiqarishdan tortib iste'mol va siyosiy qarorlargacha bo'lgan butun zanjirni qamrab oluvchi tizimli mexanizmga aylangan. Ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, ekologik yorliqlar va sertifikatlash tizimlari orqali bozorda barqaror mahsulotlarni ajratib ko'rsatish, ishlab chiqaruvchilarni ekologik mas'uliyat sari undaydi. Xususan, ISO 14001 kabi standartlar kompaniyalarning nafaqat ekologik, balki moliyaviy natijalarini ham yaxshilagan [4]. Bu tizimlar, o'z navbatida, hududlararo iqtisodiy farqlarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.



Xalqaro darajadagi yashil siyosatlar, xususan Yevropa Ittifoqining CBAM kabi mexanizmlari, global ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilsa-da, ba'zi rivojlanayotgan davlatlar uchun yangi iqtisodiy to'siqlarga sabab bo'lishi mumkin. Bu holat ekologik talablar va ijtimoiy adolat o'rtasidagi muvozanatni aniqlash zarurligini ko'rsatadi [1]. Ayniqsa, ekologik texnologiyalar joriy qilish imkoniyati cheklangan hududlar bunday talablar oldida zaif holatda qoladi.

Yana bir muhim jihat — yashil texnologiyalarning, xususan qayta tiklanuvchi energiya tizimlarining hududiy tenglikka qo'shayotgan hissasidir. Qishloq va chekka hududlarda elektr energiyasi va xizmatlarga kirish imkoniyati yashil energiya vositalari orqali sezilarli darajada oshmoqda. Bu holat marketing bilan bog'liq bo'lgan ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish zanjirini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi [2].

Shuningdek, moliyaviy inklyuzivlik masalasi ham bevosita yashil marketing strategiyalari bilan bog'liq. Aholining ekologik toza mahsulotlarga kirish imkoniyati, ularning narxlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va yashil kreditlar mavjudligi bilan chambarchas bog'liq. Moliyaviy xizmatlar va yashil moliyalashtirish vositalari iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish va ekologik innovatsiyalarni joriy etishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda [5].

Tadqiqot metodologiyasi nazariy yondashuvlarga asoslangan bo'lib, deskriptiv va kontseptual tahlil usullaridan foydalanilgan. Asosiy manba sifatida so'nggi yillarda nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar tanlab olindi. Tahlil qilinayotgan manbalar faqat siyosiy jihatdan neytral, real iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan ishlovchi, siyosiy taqiqlarga ega bo'lmagan olimlar tomonidan yozilgan ishlardir. Maqolalar orqali yashil marketing vositalarining ijtimoiy tenglik indikatorlari bilan kesishadigan nuqtalari tizimli tahlil qilindi. Bunda ekologik sertifikatlashtirish, savdo siyosatlarini, texnologik transformatsiya va moliyaviy inklyuzivlik elementlari markaziy komponent sifatida ko'rib chiqildi.

Metodologik yondashuv deduktiv mantiqqa asoslangan: umumiy nazariy tushunchalardan aniq tahlillarga o'tilib, mavjud marketing instrumentlarining hududiy farqlarga qanday ta'sir ko'rsatayotgani baholandi. Har bir nazariy g'oya, konkret holatlar va statistik tafsillar bilan mustahkamlandi. Bu esa, keyingi bo'limda keltiriladigan tahlil va natijalarning ishonchligini oshiradi.

Yashil marketing instrumentlarining hududlararo ijtimoiy tenglikka ko'rsatadigan ta'sirini chuqur o'rganish uchun ularning qanday amaliy natijalarga olib kelayotgani, qanday sharoitda samarali ishlayotgani va qanday cheklovlar uchun kelayotgani tahlil qilindi. Tadqiqotda ishlatilgan nazariy va empirik manbalar asosida tahlil natijalari quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha guruhlashtirildi: sertifikatlashtirish va yoriqlash tizimlari, yashil siyosatlarining tashqi savdo oqibatlari, yashil energetika texnologiyalarining hududiy tenglikdagi roli va moliyaviy inklyuzivlik masalalari.

Birinchidan, yashil marketingning eng keng tarqalgan vositalaridan biri — ekologik sertifikatlar va mahsulot yoriqlash tizimlaridir. Bunday mexanizmlar bozorda ekologik toza mahsulotlarni ajratib ko'rsatish orqali iste'molchilarning e'tiborini jalb qiladi va kompaniyalarni barqaror ishlab chiqarish faoliyatiga yo'naltiradi. Bu holat ayniqsa rivojlanayotgan hududlarda ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga qiziqish bildirayotgan kichik va o'rta korxonalar uchun motivatsiya manbaiga aylanadi. Tadqiqotlardan biri shuni ko'rsatadiki, yashil yoriqlar nafaqat iste'molchilar ongiga, balki ishlab chiqaruvchilarning texnologik intizomiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ISO 14001 va boshqa ekologik sertifikatlar kompaniyalar faoliyatida nafaqat ekologik, balki moliyaviy samaradorlikni ham oshirishga xizmat qilgan [4].

Ikkinchidan, yashil savdo siyosatlarining ijtimoiy tenglikka ta'siri murakkab va ko'p qirrali. Yevropa Ittifoqining "Green Deal" strategiyasi doirasida joriy etilgan CBAM (Carbon Border Adjustment Mechanism) mexanizmi ishlab chiqarishda uglerod chiqindilari yuqori bo'lgan mahsulotlar importiga soliq solish orqali ichki bozorni ekologik xavfdan himoya qilishga qaratilgan. Ammo bu tartibot, ayniqsa zaif iqtisodiy resurslarga ega bo'lgan davlatlar eksport salohiyatini pasaytirish xavfini tug'diradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu mexanizm barqaror savdoni rag'batlantirsa-da, rivojlanayotgan davlatlar, xususan Afrikaning agrosanoat eksportchilari uchun yangi cheklovlar yaratmoqda. Bu cheklovlar ijtimoiy tenglik indikatorlariga bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ayniqsa ishlab chiqarishning ekologik standartlarga javob berishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan texnologik va moliyaviy infratuzilmalar mavjud bo'lmagan hududlarda [1].

Uchinchidan, yashil texnologiyalarning joriy etilishi, xususan qayta tiklanuvchi energiya tizimlari, faqat ekologik foyda emas, balki hududiy tenglik jihatidan ham sezilarli ijobiy ta'sirga ega. Ayniqsa qishloq va chekka hududlarda energiya infratuzilmasi zaif bo'lgan joylarda quyosh, shamol va biogaz energiya manbalarining joriy etilishi aholining yashash sifati va iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda sun'iy intellekt yordamida boshqariladigan energiya tizimlarining ham paydo bo'lishi ushbu jarayonni samarali, tejamkor va bardavom qiladi. Yashil energiyaga asoslangan marketing strategiyalari, ayniqsa ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish zanjirida energetika xavfsizligini oshirish orqali bevosita hududiy rivojlanish darajasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday texnologiyalar orqali faqat bozor emas, balki ijtimoiy xizmatlar — sog'liqni saqlash, ta'lim, axborotga kirish imkoniyatlari — ham kengaymoqda [2].



Keyingi muhim yo'nalish — bu moliyaviy inklyuzivlik va yashil marketing o'rtasidagi bog'liqlikdir. Ijtimoiy tenglikni ta'minlashda aholi qatlamlarining ekologik mahsulotlarga kirish imkoniyati muhim hisoblanadi. Bu esa ekologik toza mahsulotlarning narxlari, moliyaviy xizmatlar (masalan, yashil kreditlar, subsidiyalar) va infratuzilmalarga bo'lgan kirish imkoniyatlariga bog'liq. Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, moliyaviy xizmatlarning yashil mezonlarga asoslangan taqsimoti hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj hududlarda yashil moliyalashtirish vositalari orqali marketingni faollashtirish ekologik innovatsiyalarning jadalroq tarqalishiga olib keladi [5].

Yashil siyosatlarining makroiqtisodiy modellashtirilgan tahlili ham ijtimoiy tenglik masalasiga bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi. GTAP modeli asosida olib borilgan tahlillar shuni isbotlaganki, yashil soliq mexanizmlari — uglerod solig'i, chiqindi narxlari va energiya tariflarining o'zgarishi — hududlararo daromad va iste'mol darajalariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ayrim hollarda, bu farqlar mavjud tengsizliklarni chuqurlashtirishi mumkin, ayniqsa yashil transformatsiyani qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi sust bo'lgan joylarda. Shu sababli, yashil marketing siyosatlari ijtimoiy tenglikni ko'zlovchi ijtimoiy siyosatlar bilan uzviy bog'liq bo'lishi talab etiladi [6].

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatdiki, yashil marketing instrumentlari hududlararo ijtimoiy tenglikka sezilarli ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega. Bu vositalar bevosita daromadni taqsimlash orqali emas, balki ekologik, institutsional va iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish orqali tenglikka xizmat qiladi. Ayniqsa ekologik sertifikatlar, mahsulot yoriqlari, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari va yashil moliyalashtirish vositalari marketing doirasida ijtimoiy ta'sirga ega bo'lgan eng muhim mexanizmlar sifatida ajralib turadi. Shuningdek, yashil siyosatlarining xalqaro savdoga bo'lgan ta'siri, ekologik talablar va mavjud infratuzilma o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan strategiyalar bilan uyg'unlashtirilmasa, ijtimoiy tenglik maqsadlariga erishish qiyinlashadi.

Iqtisodiy imkoniyatlar cheklangan hududlarda yashil marketing strategiyalarining natijadorligi ko'proq moliyaviy kirish imkoniyati, axborot ochiqligi va davlat siyosatining faolligiga bog'liq. Shu sababli, faqat bozordagi talabni shakllantirish emas, balki aholining ekologik ongini oshirish, ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish orqali ijtimoiy adolatga erishish mumkin. Bu esa kompleks yondashuvni talab etadi: marketing, innovatsiya, hududiy siyosat va ijtimoiy himoya tizimlarining uzviy integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqarildi:

1. Hududiy farqlarga moslashtirilgan yashil marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Yagona, umumiy yondashuv emas, balki har bir hududning iqtisodiy, demografik va texnologik imkoniyatlariga asoslangan maxsus marketing yondashuvlari ko'proq natija beradi.

2. Yashil sertifikatlashtirish va yoriqlash tizimlari mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun soddalashtirilishi lozim. Aks holda, bu mexanizmlar faqat yirik korxonalar foydasiga ishlaydi va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi.

3. Yashil moliyaviy instrumentlar — ekologik kreditlar, subsidiyalar va soliq imtiyozlari — kengaytirilishi kerak. Bunday mexanizmlar ijtimoiy zaif qatlamlarni ekologik transformatsiyaga jalb qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

4. Ekologik innovatsiyalarni qishloq va chekka hududlarda tatbiq etish uchun infrastrukturaviy va axborotiy yordam kuchaytirilishi lozim. Aholining energiya, suv, axborot va moliyaviy xizmatlarga baravar kirishini ta'minlash marketing samaradorligini oshiradi.

5. Yashil siyosatlarining savdo mexanizmlariga ta'siri ehtiyotkorlik bilan baholanishi kerak. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun CBAM kabi mexanizmlar qo'shimcha yuk bo'lmasligi, balki integratsiyalashgan ko'mak tizimlari bilan uyg'unlashtirilishi muhim.

6. Hududiy indikatorlar asosida yashil marketing strategiyalarining ijtimoiy ta'siri doimiy monitoring qilinishi kerak. Bunda indikator sifatida yashil ish o'rinlari soni, ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talab, sertifikatlangan ishlab chiqaruvchilar ulushi va aholining ekologik xabardorligi ko'rsatkichi olinishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yashil marketing instrumentlari ijtimoiy tenglikni kuchaytirish uchun mustahkam nazariy va amaliy asosga ega. Ammo bu vositalar o'z-o'zidan ishlamaydi — ularni harakatlantiruvchi kuch bu: strategik rejalashtirish, moslashtirilgan siyosat va ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuvdir. Shunday yondashuvgina yashil iqtisodiy transformatsiyani faqat ekologik emas, balki ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi mexanizmga aylantira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Haberli, C., Steiner, B., & Carlson, M. (2025). Would the CBAM promote greener African-EU agri-food trade? Insights from a joint economic–legal assessment. *Environmental Research: Food Systems*, 2(032002). <https://doi.org/10.1088/2976-601X/adebf3>
2. Biswas, A., & Rana, M. N. U. (2025). AI-enabled renewable energy systems for agricultural and rural development: Socio-technical, economic, and environmental perspectives. *Research Sustainability*, 2(3), 1–13. <https://doi.org/10.69937/pf.rs.2.3.57>



3. Reaser, J. K., Gore, M. L., Arroyo-Quiroz, I., Kirkey, I. M., King, N., & Platais, G. (2025). Advancing the science of environmental justice in the international wildlife trade. *Frontiers in Conservation Science*, 6, Article 1613910. <https://doi.org/10.3389/fcosc.2025.1613910>
4. Lohano, H. D., Hayat, N., & Siracusa, V. (2025). Labeling and certification for sustainability in food system. *Frontiers in Sustainable Food Systems*, 9, Article 1707959. <https://doi.org/10.3389/fsufs.2025.1707959>
5. Islam, M. R., & Chowdhury, R. A. (2025). Financial inclusion and environmental equity: Empirical evidence from global economies. *Journal of Risk and Financial Management*, 18(7), 375. <https://www.mdpi.com/1911-8074/18/7/375/pdf>
6. Chowdhury, N., & Hossain, M. (2025). Climate policy, energy poverty and income equity: A GTAP-based analysis. SSRN. <https://papers.ssrn.com/sol3/Delivery.cfm?abstractid=5348597>
7. Lohano, H. D., Hayat, N., & Siracusa, V. (2025). Labeling and Certification for Sustainability in Food System (Editorial). *Frontiers in Sustainable Food Systems*, 9, Article 1707959. <https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fsufs.2025.1707959/full>
8. Haberli, C., Steiner, B., & Carlson, M. (2025). CBAM's effect on African agricultural exports in the context of the European Green Deal. *Environmental Research: Food Systems*, 2(032002). <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/2976-601X/adebf3>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



ISBN 978-9910-8407-4-6



9 789910 840746